

Buxoro davlat universiteti
70230501 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya
ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlar bo'yicha tuzilgan
FANLAR KATALOGI

| T/R | Fanning kodi* | Fanning nomi | Fanning qisqa tafsifi | Kredit miqdori | Semestr | Professor-o'qituvchilar: F.I.SH., ilmiy unvoni va darajasi |
|------------------------|----------------------|--|---|-----------------------|----------------|---|
| Majburiy fanlar | | | | | | |
| 1. | ITM1102 | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | Fanni o'qitishdan maqsad-talabalarning ilmiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahoratini shakllantirish, ilmiy tadqiqot dasturini tuzishda nazariya va amaliyot birligiga rioya qilishga o'rgatishdan iborat | 2 | 1 | Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Narziyev Z.I. |
| 2. | MTMT1205 | Tarixiy rekonstruksiya masalalari | Tarixiy rekonstruksiya masalalari fani Tarixshunoslik va manbashunoslik yo'nalishi magistrilariga arxeologik obyektlarni o'rganish ularni asrab-avaylash, qayta tamirlash ishlarini olib borish masalalarini tadqiq qaladigan fandır. | 5 | 1 | To'raev H |
| 3. | MTMT1305 | Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi | Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasining maqsadi dunyo ekalogik muammolari, qadimgi davrda ekalogik holat, insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishida ekalogik omillarning ta'siri, ekologiya va atrof muhit, zamonaviy sivilizatsion jarayonlarda ekalogik muammolar kabi masalalarni o'raginshdan iborat. | 5 | 1 | Niyazova M |
| 4. | ITI1507 | Ilmiy tadqiqot ishi va dissertatsiyani | Ilmiy tadqiqot ishi ixtisoslik bo'yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish | 7 | 1,2,3 | Temirov F To'raev F |

| | | | | | | |
|-----------------------|----------|----------------------------------|--|---|---|---|
| | | tayyorlash | usullarini, tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta'minotini, tadqiqot natijalarini qayta ishlashni, ularni tahlil qilishni, xulosa va tavsiyalar tuzishni o'rganishdan iborat. | | | Jamolova D Qurbonova M Bobojonova F Niyazova M |
| 5. | MIPI1704 | Ilmiy pedagogik ish | Ilmiy pedagogik ish ixtisoslik bo'yicha DTS larni, o'quv va ishchi dasturlarni, taqvimiy reja tuzishni, dars tahlili metodikasini, ma'ruza seminar, mustaqil ta'lim, kurs ishilarini rasmiylashtirish va o'rganishdan iborat. | 4 | 1 | Temirov F |
| Tanlov fanlari | | | | | | |
| 1. | MEEA2125 | Etnologik dala tadqiqot usullari | Dala tadqiqoilarini o'tkazishda maqsad, o'rganilayotgan luiduddagi turli etnik guruhlar, urug'-qabila, elat va millat vakillarining oziga xos etnik xususiyatlari, turmush tarzi, xo'jalik faoliyati va urfodat Inrini keng miqyosda o'rganish va amalga oshirilayotgan tadqiqotni zarur etnografik materiallar bilan boyitishdir. Olib boriladigan tadqiqotga dala ishlarining ikki turi asos qilib olinadi. Birinchidan, aholining etnik tarkibi va XIX asr oxiri — XX asr boshlarida alohida etnik guruhlarining tarqalishi haqida va ikkinchidan, barcha aholi turarjoylari asosida urug'-qabilaviy va oila-qarindosh guruhlarining kelib chiqishi haqidagi xalq rivoyatlari, ularning migratsiyasi va ko'chishga sabab bo'lgan turli tarixiy voqealar haqida. | 5 | 1 | Qurbonova M |
| 2. | MEEA3415 | Etnopedagogika | Har qanday ilm sohasining fan sifatida shakllanishi odamlar ehtiyojlari bilan ehambarhas bog'liqdir. Shubhasiz, bu holat etnologiyaga ham taalluqlidir. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yashab o'tgan barcha etnoslar o'ziga xos turmush tarzi, urfodat va an'analari bilan bir-biridan ajralib turganlar. | 5 | 1 | Qurbonova M |

| | | | | | | |
|----|----------|--|--|---|---|-------------|
| | | | O'tgan ming yilliklar mobaynida tarix fanida yig'ilgan bilimlar shundan dalolat beradiki, yer sharida garehi turfaxil rasm-rusumlar va urf-odatlarga ega xalqlar yashashlariga qaramay, ularning barehasi tabiatning uzviy bir qismi sifatida rivojlanganlar va aynan tabiiy-geografik hamda xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq holdagi o'ziga xos etnomadaniy an'analarga tayanganlar. | | | |
| 3. | MEEA2215 | Markaziy Osiyo etnologiyasining dolzarb muammolari | Markaziy Osiyoga beshta mustaqil davlat: O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston hududlari kiradi. Bu mintaqada qadimdan yuksak madaniyat yaratgan xalqlar uzoq, murakkab tarixiy taraqqiyotni bosib o'tib, asrlar mobaynida bir-birlariga yaqin munosabatlarda bo'lib, yagona tarixiy-etnografik hududni tashkil etadi. Markaziy Osiyo xalqlari turli tarixiy davrlarda har xil nomlar bilan atalib kelingan. Qadimgi Markaziy Osiyoga nafaqat hozirgi Markaziy Osiyo hududlari, ayni vaqtda Eronning shimoliy-sharqiy, Afg'onistonning shimoliy hududlari ham kirgan. Miloddan avvalgi VI asrda bu hududlarda Eron podsholigi, IV asrda esa Iskandar Zulqarnayn boshliq Yunon-makedon podsholigi hukm surgan. Miloddan avvalgi IV asrda bu hududlarda Xorazm va Qang' davlatlari keyinchalik Kushon podsholigi, Turk hoqonligi, Arab xalifaligi tarkibida bo'lgan. X – XI asrlarda qadimgi O'rta Osiyoda Sosoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lgan. Birmuncha bu hududlar Qoraxoniylar hukmronligiga ham o'tgan. | 5 | 1 | Qurbonova M |
| 4. | MEEA2225 | O'zbeklarning an'anaviy ma'naviy | Tarixning davlat va jamiyat taraqqiyoti hosilasi ekanligi, jamiyat rivojlanishida davlatchilikning | 5 | 3 | Jamolova d |

| | | | | | | |
|----|----------|--|--|---|---|-------------|
| | | madaniyati | <p>muhim voqeyelik hisoblanishi, tarixning keyingi tarakkiyot bosqichida fan, texnika, madaniyat, axborotlar tizimini o'zlashtira borishi, ulardagi jamiyatga bog'liq bo'lgan hodisalarni ko'rsatib berish, jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni tahlil etish. Mamlakatimizda tolerantlik siyosatining ustivorligi. Fandagi xalqlarning etnogenezi va etnik tarixiga oid yangi nazariyalarni tahlil etish, tarixning harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini talabalarga tushuntirib berish, etnik tarix bilan bog'liq asosiy taraqqiyot yo'nalishlarni tahlil qilish va tadqiq etish malakasini hosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanish omillarini tahlil qilishda, uning tarixini yoritishda etnik tarixning rolini tushuntirish.</p> | | | |
| 5. | MEEA3515 | O'zbekistonda islohotlar strategiyasining nazariy masalalari | <p>Fanni o'qitishning maqsadi – O'zbekistonning mustaqillik yillarida yuz bergan muhim o'zgarishlar va jamiyat hayotida amalga oshirilgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatishdir. Fanni o'qitishning vazifalari – O'zbekistonning mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarni ko'rsatish orqali Yangi O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalari yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirilganligini ko'rsatish, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy va boshqa sohalardagi tub o'zgarishlarning mohiyatini talabalarga tushuntirish hamda ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat.</p> | 5 | 2 | Temirov F |
| 6. | MEEA2115 | Xorijiy mamlakatlar etnologiyasi tarixi | <p>Har qanday fanning fan sifatida shakllanishi insonlar ehtiyoji bilan bog'liqdir. Shubhasiz, bu holat etnologiya uchun ham taalluqlidir. Insoniyatning tar-</p> | 2 | 4 | Qurbonova M |

| | | | | | | |
|----|----------|------------|---|---|---|------------|
| | | | <p>ixiy taraqqiyoti davomida yashab o'tgan barcha etnoslar o'ziga xos turmush tarzi, urf-odat va an'analari bilan bir-biridan ajralib turgan. O'tgan mingyilliklar mobaynida tarix fanida yig'ilgan bilimlar shundan dalolat beradiki, yer yuzida garchi turfa xil rasm-rusumlar va urf-odatlariga ega xalqlar yashashlariga qaramay, ularning barchasi tabiatning uzviy bir qismi tarzida rivojlangan va aynan tabiiy-geografik hamda xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq holda o'ziga xos etnomadaniy an'alariga ega.</p> <p>Eng qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o'zlarining, balki tevarak atroflari va uzoq yurtlarda yashovchi el-uluslarning madaniyati, an'alariga ham qiziqqanlar. Ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilganlar. Antik davr mualliflari ko'plab empirik materiallarni yig'ishga, turli-tuman xalqlarning xo'jalik va madaniy belgilariga qarab tavsiflashga intilganlar. Lekin ularning asosiy qismi, asosan, jangchilar, sayyohlar, elchilar va boshqa mamlakatlarda turli maqsadlarda bo'lgan kishilarning xotiralari yoki bo'lmasa o'zga yurtlar to'g'risidagi turli-tuman rivoyatlarga asoslanib ma'lumotlar berganliklari bois ko'pincha mazkur ma'lumotlar umumiy yoki mavhumiy xususiyat kasb etgan</p> | | | |
| 7. | MTAR2325 | Toponimika | <p>O'quv fani toponimikaning tarixiy jihatlariga asosiy e'tiborni qaratib. Tarixiy toponimlar kundalik hayotda muntazam iste'molda bo'lishi bilan nafaqat talabayoshlar, balki keng xalq ommasining o'z yashash manzili nomining ma'nosi, shakllanish tarixini bilishga qiziqishini orttirib kelmoqda. Geografik ob'ektlarga nom berish komissiyasi faoliyati doirasida hozir butun mamlakatimizda toponimlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni ketmoqda. Bunday sharoitda mazkur jarayonlarga mutaxassis kadrlarni jalb qilish va ular fikrlari asosida xulosa chiqarish</p> | 5 | 3 | Niyazova M |

| | | | | | | |
|---|----------|---|---|---|---|------------|
| | | | <p>masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Oliy ta'lim tizimida tarixiy topinimikaga bo'lgan ilmiy-ma'rifiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda Buxoro toponimikasi fani viloyat tarixiy toponimlari to'g'risida talabalarda atroflicha bilim va tushunchalarni shakllantiradi. Toponimika fani umumkasbiy fanlar blokiga kiradi Fan dasturida dunyo, mamlakatlari, davlatlari, viloyat tumanlari kesimida berilgan mavzular doirasida talaba-yoshlarga o'zi yashayotgan viloyat, tuman, shahar, qishloq tarixiy toponimikasi to'g'risida bilim berish va shu orqali o'z yurtiga sadoqat, mehr, vatanparvarlik tuyg'usini yanada orttirish ko'zda tutilgan.</p> | | | |
| 8 | MEEA3525 | <p>Millatlararo bag'rikenglik va etnik diasporalar tarixi</p> | <p>Millatlararo totuvlik g'oyasi-umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. • Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib etmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.</p> | 5 | 3 | Niyazova M |